O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

**UDK: 811.512.133’373.21(043.3)**

***Munavarjon N. TOJIBOYEV,***
*Mustaqil izlanuvchi, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, O‘zbekiston*
*E-mail: tojiboyevmunavvarjon@gmail.com, ORCID: 0009-0005-6008-2110*

*PhD A.Isomiddinov taqrizi asosida*

## FURQAT TUMANI ETNOTOPONIMLARINING IZOHLI TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada Farg‘ona viloyati Furqat tumanidagi etnotoponimlar – urug‘ va qabila nomlari asosida shakllangan joy nomlari tarixiy-etnografik va etimologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot Qo‘qon xonlari arxivi hujjatlari, 1909-yilgi “Farg‘ona oblasti aholi punktlari ro‘yxati”, muallif to‘plagan dala materiallari va toponimik adabiyotlarga tayanadi. Jaloyir, Boltako‘l, Chekchuvaldoq, Beshechki, Qizilqiyoq, Shunqor, Kalamush (Beshog‘a) kabi nomlarning qipchoq, qatag‘on, qirq, ming, jaloyir, kenagas urug‘lari va qirg‘iz guruhlari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Etnotoponimlar besh guruhga tasniflangan, aksariyat qishloqlar XIX asr o‘rtalaridayoq mavjud bo‘lgani aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** toponim, etnonim, etnotoponim, Furqat tumani, Farg‘ona vodiysi, urug‘, tamg‘a, Qo‘qon xonligi arxivi.

## АНАЛИТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ ЭТНОТОПОНИМОВ ФУРКАТСКОГО РАЙОНА

Аннотация

В статье проведён историко-этнографический и этимологический анализ этнотопонимов Фуркатского района Ферганской области – названий, образованных от наименований родов и племён. Исследование опирается на документы архива кокандских ханов, «Список населённых мест Ферганской области» (1909), полевые материалы автора и топонимическую литературу. Показана связь названий Джалаир, Болтакуль, Чекчувалдок, Бешечки, Кизилкиёк, Шункор, Каламуш (Бешога) с родами кипчак, катаган, кырк, минг, джалаир, кенагас и киргизскими группами. Этнотопонимы классифицированы на пять групп; установлено, что большинство селений существовало уже в середине XIX в.

**Ключевые слова:** топоним, этноним, этнотопоним, Фуркатский район, Ферганская долина, род, тамга, архив Кокандских ханов.

## AN EXPLANATORY ANALYSIS OF THE ETHNOTOPONYMS OF FURQAT DISTRICT

Annotation

The article provides a historical, ethnographic and etymological analysis of the ethnotoponyms of Furqat district, Fergana region – place names derived from the names of clans and tribes. The study is based on documents of the Kokand khans’ archive, the “List of Settlements of the Fergana Oblast” (1909), the author’s field materials and toponymic literature. The connection of the names Jaloyir, Boltako‘l, Chekchuvaldoq, Beshechki, Qizilqiyoq, Shunqor and Kalamush (Beshog‘a) with the Kipchak, Katagan, Kyrk, Ming, Jalayir and Kenagas clans and Kyrgyz groups is shown. The ethnotoponyms are classified into five groups; most villages are found to have existed by the mid-19th century.

**Keywords:** toponym, ethnonym, ethnotoponym, Furqat district, Fergana valley, clan, tamga, Kokand khans’ archive.

**Kirish.** Joy nomlari xalqning tarixiy xotirasini saqlovchi o‘ziga xos manba bo‘lib, ular hudud aholisining kelib chiqishi, ko‘chishi, xo‘jaligi va tili haqidagi ma’lumotlarni asrlar davomida saqlab keladi. Ayniqsa, etnonimlar asosida shakllangan toponimlar – etnotoponimlar muayyan hududga qaysi etnik guruhlar qachon kelib o‘rnashganini aniqlashda yozma manbalarni to‘ldiruvchi muhim dalil hisoblanadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida “tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega” ekanini ta’kidlaydi [6].

Farg‘ona vodiysi aholisining etnik tarkibi toponimiya ma’lumotlari asosida S.S.Gubayeva tomonidan atroflicha o‘rganilgan [13], viloyat toponimlarining izohli lug‘atlarida ham ko‘plab nomlarga izoh berilgan [1; 4; 11]. Biroq 1992-yilda tashkil topgan Furqat tumani etnotoponimlari maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan, lug‘at izohlari arxiv va dala materiallari bilan qiyoslanmagan.

Tadqiqotning maqsadi – Furqat tumani etnotoponimlarining kelib chiqishini yozma manbalar, arxiv hujjatlari va dala materiallari asosida aniqlash hamda ularni tasniflash. Ilmiy yangiligi shundaki, tuman etnotoponimlari ilk bor lug‘at izohlari, Qo‘qon xonlari arxivi, 1909-yilgi aholi ro‘yxati va informantlardan yozib olingan ma’lumotlar asosida kompleks o‘rganildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzuga oid adabiyotlarni uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh – toponimika nazariyasiga oid ishlar. V.A.Nikonov [16] va A.V.Superanskaya [21] toponimlarning shakllanish qonuniyatlari va tasnif tamoyillarini ishlab chiqqan; N.V. Podolskaya etnonimni “har qanday etnosni nomlash uchun qo‘llanadigan atoqli ot” sifatida ta’riflaydi [17]. O‘zbek toponimikasida S.Qorayev [9], N.Oxunov [8], T.Nafasov [7] va Yu.Ahmadaliyev [1] ishlari asosiy o‘rin tutadi.

Ikkinchi guruh – o‘zbek xalqining etnik tarixiga oid tadqiqotlar. X.Doniyorov to‘qson ikki bovli o‘zbek urug‘lari ro‘yxatini keltirgan [3], K.Shoniyozov qipchoq komponenti va urug‘ tamg‘alarini tadqiq etgan [10], B.X.Karmisheva qatag‘on, qo‘ng‘irot kabi qabilalar bo‘linmalarini yoritgan [14]. T.I.Sultanov “92 qabila” ro‘yxatlarining o‘n sakkizdan ortiq varianti ma’lumligini ko‘rsatgan [20].

Uchinchi guruh – Farg‘ona vodiysiga oid ishlar va manbalar. S.S. Gubayevaning vodiy aholisi etnik tarkibini toponimiya asosida tiklagan monografiyasi [13] mavzu uchun asosiy tadqiqotdir. S.N.Abashin vodiy etnik statistikasining

manbashunoslik muammolarini tahlil qilgan [12], A.L.Troitskaya tuzgan Qo‘qon xonlari arxivi katalogi [22] xonlik davri qishloqlarini aniqlashda muhim. Joy nomlari lug‘atlari [4; 11] tumandagi ko‘plab nomlarga qisqa izoh beradi, biroq ular arxiv va dala materiallari bilan to‘ldirilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, etimologik, tarixiy-statistik, manbashunoslik va dala etnografiyasi metodlaridan foydalanildi. Etimologik tahlilda nomlarning etnonim va geografik termin (ko‘l, tepa, chek, ovul) qismlari ajratib o‘rganildi. Manbashunoslik tahlili Qo‘qon xonlari arxivi hujjatlari [A1–A5] va har bir qishloqdagi xo‘jalik va aholi sonini ko‘rsatuvchi 1909-yilgi ro‘yxatga [19] tayandi. Dala materiallari 2025–2026-yillarda Furqat, O‘zbekiston tumanlari va Qo‘qon shahrida keksa informantlar va mutaxassislardan yozib olindi [DM1; DM2]; xalq etimologiyasi ilmiy etimologiyadan ajratib baholandi.

**Tahlil va natijalar.** Furqat tumani 1992-yil 9-aprelda tashkil etilgan, maydoni 310 km², ma’muriy markazi – Navbahor shaharchasi [5]. Tadqiqot davomida tumanda 20 dan ortiq etnotoponim aniqlandi. Tuzilishiga ko‘ra ular besh guruhga ajratildi: 1) sof etnonimik nomlar (Jaloyir, Ingichka, Kapa, Shabada, To‘rg‘ay, Olatoy, Shunqor); 2) etnonim va geografik termindan tuzilgan nomlar (Boltako‘l, Boltovul, Chekchuvaldoq, Uzunchek); 3) son yoki sifat bilan birikkan etnonimlar (Beshechki, Qizilqiyoq); 4) qayta nomlangan etnotoponimlar (Kalamush → Beshog‘a; Qorovultepa → Jaloyirtepa); 5) munozarali nomlar (Chirkay, Go‘rtepa).

Jaloyir. Qishloq dastlab Qorovultepa deb atalgan. XVI asr boshida Shayboniyxon qo‘shini tarkibidagi jaloyir urug‘ining bir guruhi shu yerda o‘rnashib, qishloq “Jaloyirtepa” deb atala boshlagan [DM2]. Arxiv hujjatlarida u “Jaloyir tepa” va “Jaloiri kalon” shakllarida qayd etilgan [A5]. Jaloyirlar Rashididdin ma’lumotiga ko‘ra turk-mo‘g‘ul qabilasi bo‘lib [18], o‘zbeklarning 92 urug‘i ro‘yxatiga kiritilgan [3; 20]. 1909-yilda qishloqda 53 xo‘jalik (50 tasi yerli), 320 aholi bo‘lgan [19].

Ingichka. Nom “nozik” ma’nosidagi sifatga o‘xshasada, bunday qishloqlarning vodiyning o‘zida o‘ndan ortiq uchrashi uning etnonim ekanini ko‘rsatadi: o‘zbek va qirg‘izlar tarkibida ingichka urug‘i qayd etilgan [9; 4, 167-b.]. 1867-yilgi yorliq-pattada Ingichka Eski o‘rdaga o‘tin tashishi lozim bo‘lgan qishloqlar qatorida tilga olinadi [A2]. Kapa nomi “chayla” ma’nosidan tashqari qoraqalpoq va qirg‘izlardagi kepe etnonimi bilan bog‘lanadi [9; 11, 184-b.]; qishloq 1867-yilgi hujjatda ham qayd etilgan [A3].

Shunqor. Nom “shunqorli” o‘zbek urug‘i bilan bog‘lanadi [4]; Kamoliddin Binoiy bu qabilani Shayboniyxon atrofiga uyushgan qabilalar orasida tilga oladi [2], u Xorazm qipchoqlari tarkibida ham uchraydi [8, 64-b.]. Etnonimlarning tub va yasama shaklda parallel qo‘llanishi (bolta – boltali) “shunqorli”ning “Shunqor” shaklida toponimga aylanganini izohlaydi. Shabada nomini S.S.Gubayeva qirg‘izlarning bo‘ston urug‘iga mansub shabada bo‘linmasi bilan bog‘laydi [13, 84–85-b.], Olatoy esa ming va qo‘ng‘irot tarkibidagi urug‘ nomi bo‘lib, 642-raqamli arxiv daftarida qayd etilgan [A4; DM2].

Boltako‘l. Ilmiy jihatdan asosli talqin nomni urug‘ tamg‘asi bilan bog‘laydi: tamg‘asida bolta tasviri bo‘lgan “boltali” urug‘i tasarrufidagi ko‘l “Boltali ko‘l” deyilgan va keyinchalik “Boltako‘l” shakliga kelgan [4, 78-b.]. Bolta urug‘i qipchoqlarning sariqipchoq guruhiga kirgan [8, 10-b.]; qo‘shni Boltovul nomi ham shu urug‘ yashagan ovulni bildiradi. 1870-yilgi yorliq-pattada Boltako‘ldagi yer egasining tanobona solig‘idan ozod qilinishi haqida so‘z boradi [A1].

Chekchuvaldoq. Nomni “chuvalgan chek” deb izohlash xalq etimologiyasidir [8, 58-b.]. Vodiyda “chek” so‘zi xon va amaldorlarga tegishli yer uchastkasini ham bildirgan. Chuvaldoq etnonimi X. Doniyorov tomonidan qirq qabilasining qoracha bo‘linmasi tarkibida qayd etilgan [3, 86-b.], u qipchoq va nayman tarkibida ham uchraydi [8, 58-b.]. Demak, nom “chuvaldoq urug‘iga tegishli yer” ma’nosini anglatadi; arxivda qishloq “Chubildoq” shaklida yozilgan [DM2]. Uzunchek ham shu tarzda – mollarga cho‘ziq chiziq shaklidagi tamg‘a bosgan uzun urug‘iga tegishli chek yer sifatida izohlanadi [7; 10].

Beshechki. “Echki” – qatag‘on qabilasiga mansub o‘zbek urug‘i nomi [14; 11, 65-b.], “besh” komponenti esa ko‘p hollarda urug‘ning besh aymog‘ini bildiradi. Qizilqiyoq nomi shaklan o‘simlik nomiga o‘xshaydi [1], biroq “kiyak” etnonimi I.P. Magidovich tomonidan o‘zbek qatag‘onlari tarkibida qayd etilgan [15]. Dala materiallariga ko‘ra, tamg‘asiga qo‘zichoq surati solingan aymoq “qo‘zili qiyoq” deyilgan va bu nom talaffuzda “Qizilqiyoq”qa aylangan [DM2].

Beshog‘a (Kalamush). Qishloq XXI asr boshigacha Kalamush deb atalgan, keyinchalik Beshog‘a nomini olgan [4, 61-b.; DM1]. Mahalliy tadqiqotchi M.Xo‘jayev nomni kenagas qabilasining kalamush urug‘i bilan bog‘laydi, O‘rta Osiyoda o‘nga yaqin shu nomli qishloq borligi ham bu fikrni tasdiqlaydi [DM2]. 1873-yilgi arxiv daftarida Kalamush xon qo‘riqxonasidagi pichanzorlarni ijaraga olgan qishloqlar qatorida qayd etilgan [A5].

Munozarali nomlar. Chirkay nomi S. Qorayev tomonidan qirg‘iz yoki qipchoq urug‘i nomi deb taxmin qilinadi [9; 1, 111-b.], dala materiallarida esa egar to‘shamasi to‘quvchi ustalar – “chirkaybof”lar bilan bog‘lanadi [DM2]. Go‘rtepa tarixiy manbalarda “Gurgtepa”, “Cheki Gurgtepa” shaklida yozilgan bo‘lib, nom “go‘r” bilan emas, tojikcha “gurg” (bo‘ri) va ming, qatag‘on, kenagas tarkibidagi bo‘ri urug‘i bilan bog‘liq [DM2].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tuman etnotoponimlari asosan qipchoq, qatag‘on, qirq, ming, jaloyir, kenagas urug‘lari hamda qirg‘iz guruhlari nomlari bilan bog‘liq. Jaloyir, Ingichka, Kapa, Olatoy, Kalamush, Boltako‘l qishloqlari XIX asrning 60–70-yillariga oid arxiv hujjatlarida qayd etilgan. 1909-yilda bu qishloqlarda xo‘jaliklarning 89–97 foizi o‘z ekin yeriga ega bo‘lgani aholining to‘liq o‘troqlashganidan dalolat beradi.

**Xulosa va takliflar.** Furqat tumani toponimiyasida etnotoponimlar alohida qatlamni tashkil etadi va hudud aholisining shakllanish tarixini tiklashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijasida tumanda 20 dan ortiq etnotoponim aniqlanib, besh guruhga tasniflandi; lug‘at izohlari arxiv hujjatlari, 1909-yilgi ro‘yxat va dala materiallari bilan qiyoslanib, ko‘pchilik nomlarning etnik asosi tasdiqlandi, Qizilqiyoq, Go‘rtepa, Kalamush nomlari uchun esa xalq etimologiyasidan farqli ilmiy talqin asoslandi.

Takliflar: 1) Kalamush, Gurgtepa kabi tarixiy nomlarni mahalla tarixi sifatida hujjatlashtirish; 2) joy nomlarini o‘zgartirishda ularning tarixiy-etnik asosini hisobga olish; 3) Qo‘qon xonlari arxivi hujjatlarini tuman toponimlari bo‘yicha tizimli o‘rganishni davom ettirish; 4) tumanning etnotoponimik xaritasini yaratish.

Furqat tumanining asosiy etnotoponimlari va ularning etnik asoslari

| № | Toponim | Asosidagi etnonim | Qayd etilgan etnik tarkib |
|---|---|---|---|
| 1. | Jaloyir (Jaloyirtepa) | jaloyir | 92 bovli o‘zbek urug‘lari |
| 2. | Ingichka | ingichka | o‘zbek, qirg‘iz |
| 3. | Kapa | kapa (kepe) | o‘zbek, qirg‘iz, qoraqalpoq |

| № | Toponim | Asosidagi etnonim | Qayd etilgan etnik tarkib |
|---|---|---|---|
| 4. | Shabada | shabada | qirg‘iz (bo‘ston); boshqird (qitoy) |
| 5. | Boltako‘l, Boltovul | boltali, bolta | qipchoq (sariqipchoq) |
| 6. | Chekchuvaldoq | chuvaldoq | qirq (qoracha), qipchoq, nayman |
| 7. | Uzunchek | uzun | qipchoq, qo‘ng‘irot, qirg‘iz (bag‘ish) |
| 8. | Beshechki | echki | qatag‘on |
| 9. | Qizilqiyoq | qiyoq (kiyak) | qatag‘on; qozoq (bayuli) |
| 10. | Beshog‘a (Kalamush) | kalamush | kenagas |
| 11. | Shunqor | shunqorli | o‘zbek, Xorazm qipchoqlari |
| 12. | Qushchi | qushchi (qutchi) | qo‘ng‘irot, do‘rmon, qatag‘on |
| 13. | Olatoy | olatoy | ming, qo‘ng‘irot |
| 14. | Chirkay | chirkay | qirg‘iz (bargi, saru, sayak), qipchoq |

**ADABIYOTLAR**


1. Ahmadaliyev Yu.I. Farg‘ona viloyati toponimlari. – Farg‘ona: Farg‘ona, 2009. – 140 b.
2. Ahmedov B. O‘zbeklarning kelib chiqishi tarixidan. – Toshkent, 1962.
3. Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968.
4. Farg‘ona joy nomlari izohli lug‘ati / tuz. S. Usmonova [va boshq.]. – Farg‘ona: Farg‘ona, 2025.
5. Furqat tumani // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – URL: https://qomus.info/oz/encyclopedia/f/furqat-tumani/ (murojaat sanasi: 20.10.2026).
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
7. Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
8. Oxunov N. Joy nomlari ta’biri. – Toshkent: O‘zbekiston, 1994.
9. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1978.
10. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq, 2001. – 464 b.
11. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati / tuz. R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 624 b.
12. Абашин С.Н. Этнографическое знание и национальное строительство в Средней Азии («проблема сартов» в XIX – начале XXI в.): дис. … д-ра ист. наук. – М., 2008.
13. Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX – начале XX в. (по данным топонимии). – Ташкент: Фан, 1983. – 245 с.
14. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – 323 с.
15. Магидович И.П. Материалы по районированию Средней Азии. Кн. 1. – Бухара, 1926.
16. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965.
17. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – 187 с.
18. Рашид-ад-дин. Сборник летописей. Т. I, кн. 1. – М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1952.
19. Список населённых мест Ферганской области. – Скобелев: Ферганский областной статистический комитет, 1909.
20. Султанов Т.И. Кочевые племена Приаралья в XV–XVII вв. – М.: Наука, 1982. – 132 с.
21. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973.
22. Троицкая А.Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. – М.: Наука, 1968. – 582 с.
23 [A1] O‘zR Milliy arxivi. Qo‘qon xonlari arxivi. Boltako‘l qishlog‘i haqida yorliq-patta. Hijriy 1287 / 1870-y.
24 [A2] O‘sha arxiv. Hujjat № 628. Qishloqlar oqsoqollariga yorliq-patta. Hijriy 1284 / 1867-y.
25 [A3] O‘sha arxiv. Hujjat № 635. Xudoyorxonning o‘tin tashish haqidagi farmoyishi. 1867-y.
26 [A4] O‘sha arxiv. Hujjat № 642. O‘tin tashish va yetkazib berish daftari.
27 [A5] O‘sha arxiv. Hujjat № 566/2. Xos qo‘riqxona yerlarini ijaraga berish daftari. Hijriy 1290 / 1873-y.
28 [DM1] Toshtemirov Sotivoldi, 1951-y.t., O‘zbekiston tumani, Bo‘ston qishlog‘i. Dala yozuvi, 2026-y.
29 [DM2] Dadaboyev Yahyoxon, Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi yetakchi ilmiy xodimi. Dala yozuvi, 2026-y.